

Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida viloyatda 3779 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1101 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2747 ta (11,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 27391 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1997	1845	256
	Sanoat	5864	5548	855
	Qurilish	2543	2418	445
	Savdo	7345	6810	748
	Tashish va saqlash	1122	1084	221
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1368	1290	148
	Axborot va aloqa	565	520	62
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	662	639	167
	Boshqa turlari	7450	7237	877



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.


2019 yilning 1 yanvar holatiga 28916 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 25,4 % savdo, 20,3 % sanoat, 8,8 % qurilish, 6,9 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 2,0 % axborot va aloqa hamda 25,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (9571 ta), Asaka (2602 ta), Shahrihon (2051 ta) va Andijon (2025 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Honabod shahri (455 ta), Ulug'nor (571 ta), Bo'z (709 ta) hamda Buloqboshi (722 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **27 391** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2747 ta (11,1 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,9 % savdo, 20,3 % sanoat, 8,8 % qurilish, 6,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,9 % axborot va aloqa va 26,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (9214 ta), Asaka (2572 ta), Andijon (1839 ta) va Shahrihon (1795 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Honobod shahri (448 ta), Ulug'nor (568 ta), Bo'z (699 ta) hamda Buloqboshi (711 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar
kesimida soni, birlikda**

01.01.2017 y.

• 26277 ta

01.01.2018 y.

• 24644 ta

01.01.2019 y.


• 27391 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3779 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 41,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Andijon shahri (1107 ta), Asaka (325 ta), Shahrixon (245 ta) va Andijon (238 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ulug'nor (92 ta), Honabod shahri (94 ta) hamda Buloqboshi (107 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi sanoat (855 ta), savdo (748 ta), qurilish (445 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (256 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (62 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (167 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (148 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	2764	100	2678	100	3779	100
Savdo	1170	42,3	574	21,4	748	19,8
Sanoat	541	19,6	839	31,3	855	22,6
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	211	7,6	247	9,2	256	6,8
Qurilish	205	7,4	229	8,6	445	11,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	146	5,3	110	4,1	148	3,9
Tashish va saqlash	83	3,0	150	5,6	221	5,8
Axborot va aloqa	45	1,6	63	2,4	62	1,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	31	1,1	87	3,2	167	4,4
Boshqa turlari	332	12,1	379	14,2	877	23,2

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 22692 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6081 ta, oilaviy korxonalar – 558 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15470 ta va boshqalar 583 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 222 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 50 taga yoki 29,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 131 tasi qo'shma korxonalar, 91 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar (89 ta yoki jami ulushi 40,1 %), Andijon (18 ta yoki 8,1 %), Shahrihon (17 ta yoki 7,7 %) va Asaka (14 ta yoki 6,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'z (4 ta yoki 1,8 %), Ulug'nor (4 ta yoki 1,8 %), Jalaquduq (5 ta yoki 2,3 %), Paxtaobod (5 ta yoki 2,3 %) va Xo'jaobod (5 ta yoki 2,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 156 tani (70,3 %), savdoda 21 tani (9,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16 tani (7,2 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 12 tani (5,4 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 tani (0,5 %), tashish va saqlashda

2 tani (0,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 tani (3,2 %) va qurilishda 7 tani (3,2 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlashda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 55 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 16 ta, Rossiya Federatsiyasi - 13 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 5 ta, Pokiston Islom Respublikasi - 4 ta, Turkiya Respublikasi - 3 ta, Belarusiya Respublikasi - 3 ta, Qozog'iston, Hindiston, Buyuk Britaniya, Eron va Afg'oniston Respublikalarida - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (27 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta), savdo (9 ta), yashash va ovqatlanish (2 ta) va boshqa faoliyat turlari (6 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	22	64,7	27	49,1
Savdo	7	20,6	9	16,4
Qurilish	1	2,9	0	0
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3	8,8	11	20,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0	0	2	3,6
Axborot va aloqa	0	0	0	0
Tashish va saqlash	0	0	0	0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	0	0
Boshqa turlari	1	2,9	6	10,9



Kichik korxona va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 yanvar holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 22560 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 10,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 8139 tasi (36,1 %) Andijon shahri, 2177 tasi (9,6 %) Asaka, 1549 tasi (6,9 %) Andijon hamda 1435 tasi (6,4 %) Shahrihon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22560 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6780 tasi (30,1 %) – savdo, 5494 tasi (24,4 %) - sanoat, 2414 tasi (10,7 %) - qurilish, 1838 tasi (8,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1282 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1063 tasi (4,7 %) - tashish va saqlash, 563 tasi (2,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 514 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2637 tasi (11,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3131 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 26,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (983 ta), Asaka (273 ta), Andijon (209 ta) va Shahrihon (194 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Ulug'nor (65 ta), Honobod shahar (81 ta) hamda Buloqboshi (82 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (853 ta), savdoda (747 ta), qurilishda (445 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (251 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (62 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (147 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (165 ta), hamda tashish va saqlashda (220 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 592 tani tashkil etib, ulardan 558 tasi yoki 94,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 19,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,0 % yoki 251 tasi sanoat, 23,3 % yoki 130 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,3 % yoki 63 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,0 % yoki 50 tasi savdo, 1,6 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 6 tasi qurilish, 0,9 % yoki 5 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 7,2 % yoki 40 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxona va tashkilotlar


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 1002 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -3474 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 3094 ta, 2017 yilda 4476 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 1002 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 3474 taga tugatish kamaygan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dynamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 1002 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 331 tasi (33,0 %) savdo, 190 tasi (19,0 %) sanoat, 107 tasi (10,7 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 102 tasi (10,2 %) qurilish, 34 tasi (3,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 27 tasi (2,7 %) axborot va aloqada, 20 tasi (2,0 %) tashish va saqlashda, 11 tasi (1,1 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 180 tasi (18,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	4476	100	1002	100	-3474
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	486	10,9	107	10,7	-379
sanoat	867	19,4	190	19,0	-677
qurilish	382	8,5	102	10,2	-280
savdo	1408	31,5	331	33,0	-1077
tashish va saqlash	136	3,0	20	2,0	-116
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	196	4,4	34	3,4	-162
axborot va aloqa	141	3,6	27	2,7	-114
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	351	7,8	11	1,1	-340
boshqa turlari	509	11,4	180	18,0	-329

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 864 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -3150 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 325 tasi (37,6 %) savdo, 190 tasi (22,0 %) sanoat, 102 tasi (11,8 %) qurilishda, 102 tasi (11,8 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 34 tasi (3,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 27 tasi (3,1 %) axborot va aloqada, 19 tasi (2,2 %) tashish va saqlashda, 10 tasi (1,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 55 tasi (6,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Andijon shahar -780 ta, Andijon -383 ta, Asaka -324 ta hamda Marhamat - 287 ta tumanlarida kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:74-228-29-74